

O'zbekiston

Metama'lumot

Ishlab chiqarish indeksi – ishlab chiqaradigan sanoat

0. Asoslar

0.1 Qonuniy muhit

0.1.1 Statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish uchun javobgarlik

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Davlat statistika qo'mitasi 2002 yil 12 dekabrda tasdiqlangan va 2012 yilda o'rgartirish va qo'shimchalar kiritilgan "Davlat statistikasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq mustaqil ravishda o'z faoliyatini yuritadi, ushbu qonun bilan davlat statistikasini tashkil etish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi, davlat statistikasi organlarining vakolatlarini belgilaydi hamda yagona statistika axboroti tizimi yuritilishi uchun normativ asos yaratadi.

2017 yil sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining vakolatlari, funksiyalari va tarkibini aniqlab beadigan yangi "O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risida Nizom"i tasdiqlandi, ushbu nizom Davlat statistika qo'mitasi Milliy statistika tizimini muvofiqlashtirish, monitoring va nazorat qilishga mas'ul va ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, analiz qilish va tarqatish bo'yicha asosiy organ bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga, xalqaro standartlarga mos yagona statistik uslubiyat bilan ta'minlash vazifalarini bajaradi.

Davlat statistika qo'mitasi, statistika ishlarini olib boruvchi boshqa davlat statistika organlari singari davlat statistika hisobotlarini, ma'muriy hisobotlarni va davlat statistika kuzatuvlarini o'tkazish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlarni, shuningdek hisobotlaridagi tushuntirishlarni o'z vakolatlari doirasida boshqa organlardan ta'lab qilib olish huquqiga ega.

2017 yil 12 sentyabrdagi 5054 sonli Prezident topshirig'iga muvofiq, mamlakatdagi iqtisodiy va moliyaviy ma'lumotlar XVJning kengaytirilgan umumiy ma'lumotlar tarqatish tizimi (k-UMTT) doirasiga to'g'ri keladigan va muvofiqlashgan bo'lishi kerak.

0.1.2 Ma'lumot ishlab chiqaruvchi tashkilotlar o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi va muvofiqlartirish

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

“Davlat statistikasi to'g'risidagi” qonunning 9-moddasiga asosan Davlat statistikasi organlari Davlat statistikasi ishlari dasturini bajarishda davlat statistikasi organlariga ko'maklashishi shart bo'lgan boshqa davlat organlari hamda yuridik shaxslar bilan statistika ishlarini hamkorlikda bajaradi. Davlat statistikasi organlari o'zlarining vakolat doirasiga kiruvchi ayrim ishlarining boshqa davlat organlari hamda yuridik shaxslar tomonidan bajarilishiga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yo'l qo'yadi. Boshqa davlat organlari hamda yuridik shaxslar Davlat statistika ishlari dasturiga muvofiq davlat statistika kuzatuvlarini, shuningdek davlat statistikasi vakolatli organi bilan kelishilgan shakllarda idoraviy statistika kuzatuvlarini o'tkazadi. Idoraviy statistika kuzatuvlarining ma'lumotlari davlat statistikasi vakolatli organiga uning so'roviga binoan taqdim etiladi.

Bundan tashqari, statistika kengashi davlat statistikasi vakolatli organi huzuridagi davlat statistikasining rivojlantirilishi, faoliyat ko'rsatishi va muvofiqlashtirilishi muammolari bo'yicha kollegial maslahat organi hisoblanadi. Statistika kengashi davlat statistikasining ayrim masalalarini ko'rib chiqish uchun ekspert komissiyalari tayinlashi mumkin. Statistika kengashi va ekspert komissiyalarining yig'ilishlariga ekspertlar taklif etilishi, yig'ilishlarda vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar vakillarining davlat statistikasi masalalari bo'yicha axborotlari eshitalishi mumkin. Statistika kengashining tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

0.1.3 Alohida muxbirlarning ma'lumotlari maxfiyligi

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

“Davlat statistikasi to'g'risidagi” qonunning 7-moddasiga asosan Davlat statistikasi organlari yakka tartibdagi statistika ma'lumotlarining maxfiyligini, davlat sirlari va yuridik shaxslarning tijorat sirlariga rioya etilishini, jismoniy shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarning egasi mavhumlashtirilishini ta'minlashga majburdirlar. Bundan tashqari 2017 yil sentyabrda “O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risida Nizom”ga asosan, (13-band, §15) Davlat statistika qo'mitasi maxfiylik masalalarini hal qilish bo'yicha xavfsizlik choralarini ko'radi, shu jumladan bank sirlarini ham (13-band, §11). Nihoyat, “Davlat statistikasi to'g'risidagi” qonunning 7-moddasiga asosan davlat organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining davlat statistika sohasidagi faoliyatiga aralashuviga yo'l qo'yilmaydi.

Davlat statistika qo'mitasi xodimlari axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik qasamiga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday ma'lumotlarni oshkor qilmasliklari kerak.

Ularni lavozimga tayinlash paytida majburiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Davlat statistika qo'mitasining har bir xodimi uni bunday ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini o'z ichiga olgan shartnomaga qo'l qo'yishi shart.

0.1.4 Statistik hisobotlarni taqdim etish

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Davlat statistika qo'mitasi sifat menejmenti va metama'lumotlar boshqaruvini

ta'minlaydigan statistika biznes-jarayonlarini ifodalovchi BMT ning Yevropa Iqtisodiy Komissiyasining (UNECE) Statistika biznes jarayonlar umumiy modelini yuritadi.

Respondentlarga ma'lumot yetkazib berish maqsadida Davlat statistika organlari o'z vakolatlari doirasida moliya, bojxona, soliq organlari, banklar va boshqa idora va xizmatlar, yuridik shaxslar va ularning vakolatxonalari filiallaridan, jismoniy shaxslardan, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlardan Davlat statistika kuzatuvlarini yuritish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni so'rashga va olishga, shuningdek, statistik maqsadlarda foydalaniladigan hisobotlarga tushuntirishlar olishga huquqiga ega.

Bundan tashqari, davlat statistikasi korxonalar va muassasalar statistik ma'lumotlarining ishonchliligini tekshiradi, olingan statistik ma'lumotlarni to'liqligi ob'ektivligini ekspertizadan o'tkazadi va buzilganligi aniqlangan hollarda ularni to'g'rilash uchun zarur ko'rsatmalar beradi va statistika ma'lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritadi.

0.2 Resurslar

0.2.1 Kadrlar, moddiy-texnik, elektron hisoblash va moliyaviy resurslar (tavsiya etiladigan kategoriya)

Ishlab chiqarish va xizmatlar indeksini shakllantirish bilan Markaziy apparatda 15 nafar xodim va hududiy statistika boshqarmalarining sanoat bo'limlarida 4-5 nafar xodim shug'ullanadi.

Xodimlar soni sanoat statistikasi bo'yicha statistik ma'lumotlarni shakllantirish uchun qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun yetarli.

Barcha xodimlar iqtisodiy va sanoat sohasida oliy ma'lumotga ega va har ikki yilda kamida bir marta Davlat statistika qo'mitasining Kadrlarni qayta tayyorlash va statistika tadqiqotlari markazida malakasi oshiriladi.

Har bir ish o'zni shaxsiy kompyuter bilan ta'minlangan, dasturiy ta'minot muntazam yangilanib turiladi.

Taqdim etilayotgan moliyaviy resurslar sanoat statistikasi bo'yicha Davlat statistika ishlari dasturida belgilangan ishlarni bajarish uchun yetarli.

1. Yaxlitlik

1.1 Kasbiy mahorat

1.1.1 Statistikaning xolisligi

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

“Davlat statistikasi to'g'risidagi” qonunning 7-moddasiga asosan, Davlat statistikasining asosiy prinsiplari aniqlik, xolislik va beg'arazlikdir. Bundan tashqari, “O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risidagi Nizomi”da (13-modda, §6) Davlat statistika qo'mitasining prinsiplari beg'arazlikni ta'minlashi belgilanga.

1.1.2 Manbalar, uslublar va tarqatish usullarini tanlash

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

“Davlat statistikasi to'g'risidagi” qonunning 14-moddasiga muvofiq statistika

ma'lumotlaridan davlat manfaatlarini ko'zlab va ilmiy maqsadlarda, jamoatchilikni xabardor etish, bunday ma'lumotlardan foydalanuvchilarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash uchun foydalaniladi. Davlat statistikasi organlari yuridik shaxslardan, ularning vakolatxonalari va filiallaridan, jismoniy shaxslar, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlardan olgan birlamchi statistika ma'lumotlari faqat jamlanma statistika ko'rsatkichlarini tayyorlashda statistika maqsadlarida ishlatiladi hamda jamlanma holatda va egasi mavhumlashtirilgan tarzda e'lon qilinadi. Tarkibida davlat siri va tijorat sirlari bo'lgan statistika ma'lumotlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda taqdim etiladi.

1.1.3 Statistika ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilish yoki undan noto'g'ri foydalanish bo'yicha sharh

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Davlat statistika qo'mitasi statistik ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilish va statistik ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanilganda o'z izohini berishi mumkin.

1.2 Shaffoflik

1.2.1 Statistika ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish nizomi va tartibini oshkor qilish

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

“Davlat statistikasi to'g'risidagi” qonunning 4-moddasiga binoan, Davlat statistikasining asosiy prinsiplari qulaylik, ochiq-oydinlik va oshkorlikdir. Statistika ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish bo'yicha shartlar O'zbekiston Respublikasining statistika qonun va qarorlarida keltirilgan. Ushbu qonunchilik choralari veb-saytga joylashtirilgan va jamoatchilikni ular bilan tanishish imkoniyati mavjud. Shunday qilib, “Davlat statistikasi to'g'risidagi” qonun (2002 yil) va Qo'mitaning 368-sonli qarori veb-saytga (www.stat.uz) joylashtirilgan. Qonun Oliy Majlis byulletenida ham chop etiladi va normativ-huquqiy hujjatlar bazasiga (norma), shuningdek Adliya vazirligining www.Lex.uz manzilida joylashgan ma'lumotlar bazasida ham mavjud.

1.2.2 Hukumatning statistik ma'lumotlarga e'lon qilinishidan oldin ko'rishning ichki imkoniyati

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Hukumat Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlarini e'lon qilinish vaqtidan oldin ko'rish imkoniyatiga ega emas. Statistika ma'lumotlarni tarqatishda Davlat statistika organlari mustaqildir. Davlat organlarining aralashuviga yo'l qo'yilmaydi (“Davlat statistikasi to'g'risidagi” qonunning 5-moddasi). Faqat qo'mita Raisi statistik ma'lumotlar e'lon qilinishidan oldin ularni ko'ra oladi.

1.2.3 Statistika ma'lumotlarni belgilash

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Jamiyatga e'lon qilinayotgan ma'lumotlar ma'lumot ishlab chiqaruvchi agentlik tomonidan aniq belgilanadi (logotip va izohlar).

1.2.4 Uslubiyatlar, dastlabki ma'lumotlar va statistik usullardagi asosiy o'zgarishlar haqida avvaldan xabar berish.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Yangi uslubiyatga o'tishdan, mavjud uslubiyatlar va usullarga jiddiy o'zgartirishlar kiritishdan oldin Davlat statistika qo'mitasi jamaotchilikni oldindan ogohlantiradi. Davlat statistika qo'mitasi o'z veb-saytida foydalanuvchilarni qanday o'zgarishlar kutayotganini tushuntiruvchi tegishli uslubiy ko'rsatmalarni joylashtiradi.

1.3. Axloq me'yorlari

1.3.1 Xodimlarning axloqi bo'yicha ko'rmatma

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Davlat statistika qo'mitasi xodimlari axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik qasamiga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday ma'lumotlarni oshkor qilmasligi kerak. Ular lavozimiga tayinlanayotganda majburiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Davlat statistika qo'mitasi xodimi uni bunday ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini olgan shartnoma tuzishi shart.

2. Metodologiya

2.1 Konsepsiya va ta'riflar

2.1.1 Konsepsiya va ta'riflar (talab etiladigan kategoriya)

Ishlab chiqarish indekslarining metodologiyasi Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) tomonidan tavsiya etilgan xalqaro standartlarning talablariga javob beradi.

Sanoat:

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish indeksini hisoblashning uslubiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2019 yil 7 maydagi 20-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Qayta ishlash sanoati ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksini deflyatorlash usuli asosida hisoblash bo'yicha uslubiy nizom» bo'yicha hisoblanadi. Mazkur metodik qo'llanma "2008 yilgi Sanoat statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar", "2010 yilgi Sanoat ishlab chiqarish indeksi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" bilan mos keladi.

Davlat statistika qo'mitasi Xalqaro standartlar talablariga moslashtirilgan uslubiyatni qo'llagan holda ishlab chiqarish indeksini hisoblashni 2003 yildan beri Xalqaro valyuta jamg'armasi missiyasining tavsiyalariga muvofiq ravishda amalga oshiradi.

2.2 Statistik qamrov

2.2.1 Statistik qamrov (talab etiladigan kategoriya)

2.2.1.1 Ma'lumotlarning statistik qamrovi

Ma'lumotlarning geografik qamrovi Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyat va Toshkent shahrini o'z ichiga oladi.

Sanoat ishlab chiqarishning umumiy hajmi quyidagi sanoat faoliyatlarini o'z ichiga oladi:

- a) yirik korxonalar;

b) kichik korxonalar va mikrofirmalar;
v) yakka tartibdagi tadbirkorlar va uy xo'jaliklari tomonidan o'z iste'moli va sotish uchun sanoat maxsulotlarini ishlab chiqarish.
g) yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar hajmi.

2.2.1.2 Statistik qamrovdan istisnalar

Hech qanday istisnalar yo'q.

2.2.1.3 Aniqlanmagan faoliyat

Yashirin iqtisodiyot hisobga olinmaydi.

2.3 Klassifikatsiya/sectorlar bo'yicha bo'lish

2.3.1 Klassifikatsiya/sectorlar bo'yicha bo'lish (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

Faoliyat turlari bo'yicha taqsimlash O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (OKYeD 2-nashr) ga muvofiq amalga oshiriladi, mazkur tasniflagich Yevropa Ittifoqidagi iqtisodiy faoliyat tasniflagichi (KDYeS 2-nashr) ga mosdir.

Hisobning asosiy birligi bu – institutsional birlikdir.

2.4 Hisobga olish asosi

2.4.1 Baholash (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

Sanoat: ishlab chiqaruvchilar narxlari indekslari ishlab chiqarishni bazis davr narxlariga muvofiq joriy narxlarga keltirish uchun deflyator sifatida qo'llaniladi.

Sanoat mahsuloti hajmining qiymati ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning ularning qachon sotilishidan qat'iy nazar ishlab chiqarish vaqtidagi narxlarda aniqlanadi.

2.4.2 Hisobga olish asosi (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

Tranzaksiya va oqimlar 2008 yilgi MHT (SNS) tavsiyalariga muvofiq keladigan hisoblash usuli bilan ro'yhatga olinadi.

Yuridik shaxslar bo'yicha ma'lumotlar hisoblash tizimi asosida shakllanadi.

2.4.3 Yalpi/sof ko'rsatkichlarni hisoblash tartiblari (tavsiya etiladigan kategoriya)

Sanoat ishlab chiqarishning qiymat hajmi yalpi ko'rsatkich sifatida tavsiflanadi. Sanoat ishlab chiqarish indeksleri yalpi qo'shilgan qiymatning vaznlaridan foydalanilgan holda iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha hisoblanadi.

3. Aniqlik va ishonchlik

3.1 Boshlang'ich ma'lumotlar

3.1.1 Boshlang'ich ma'lumotlarni yig'ish dasturlari (talab etiladigan kategoriya)

Statistik faoliyatni amalga oshirish uchun Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 25 sentyabrdagi "Korxonalarining yagona davlat registri to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi 274-son qaroriga muvofiq faoliyat ko'rsatuvchi keng qamrovli va muntazam yangilanadigan korxonalar registri (Korxonalarining yagona davlat registri) hamda Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 9 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish tizimini takomillashtirish to'g'risida» 2016 yil 28 oktyabrdagi PQ-2646-son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 66-son qarori hisoblanadi.

Korxonalar registrini yuritish tartibi (jumladan, yangi korxonalarni qo'shish, faoliyatini to'xtatgan korxonalarni chiqarish, mulkchilik shaklini o'zgartirish) belgilangan talablarga mos keladi. Ma'lumotlar yig'ish dasturining keng qamrovli xususiyatini ta'minlash maqsadida shakllangan ma'lumotlar doimiy ravishda tahlil qilinadi. Ro'y berayotgan jarayonlarni hisobga olgan holda hisobot shakllari vaqti-vaqti bilan ko'rib chiqiladi.

Sanoat:

Sanoat mahsuloti indeksini hisoblash uchun davlat statistika hisobotlarining birlamchi statistik ma'lumotlar bazasi bo'lib hisoblanadi, bunda:

- yiliga bir marta, yirik korxonalar uchun davlat statistika hisoboti, kichik korxonalar va mikrofirmalar, fermer xo'jaliklari uchun yagona hisobot, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar va uy xo'jaliklarining sanoat mahsulotlari (ish, xizmat) ishlab chiqarishdagi faoliyatini baholash bo'yicha ma'lumotlari asosida sanoat mahsulotlari umumiy hajmiga doir aniqlashtirilgan ma'lumotlar shakllantiriladi;

- oylik sanoat mahsuloti hajmi yirik sanoat korxonalari va tashkilotlarning hisobot ma'lumotlari hamda boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning sanoat ishlab chiqarish hajmini baxolash asosida tezkor tartibda aniqlanadi.

Uy xo'jaliklarini statistik kuzatuvlari muntazam ravishda o'tkaziladi. Yakka tartibdagi tadbirkorlarning ishlab chiqarish faoliyatini hisoblash ma'lumotlari yetarli darajada aniqlashtirilgan, yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatini baholash uchun har chorakda sanoat faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslarni so'rov natijalaridan foydalaniladi.

3.1.2 Ta'riflar, statistik qamrov, klassifikatsiyalar, baholashlar va boshlang'ich ma'lumotlarni hisobga olish davri (tavsifiya etiladigan kategoriya)

Sanoat:

Asosiy ma'lumotlarni shakllantirilishi buxgalteriya hisobi va hisobot davridagi muddatga to'g'ri keladi. Eng muhim sanoat guruxlari bo'yicha faoliyat turlari aynan bir xildir.

Ma'lumotlar: oylik – xisobot davridan keyingi 10 ish kunidan kechiktirmasdan, har yili – xisobot davridan keyingi 6 oydan oshmasdan chiqariladi.

3.1.3 Boshlang'ich ma'lumotlarning o'z vaqtida tayyor bo'lishi (tavsiya etiladigan kategoriya)

Ma'lumotlarni yig'ish dasturi Davlat statistika ishlari dasturi tomonidan tartibga solinadi.

Sanoat: Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish indeksi ko'rsatkichlari to'g'risidagi oylik ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan hisobot davridan keyingi o'ning 10 kunidan kechikmasdan shakllantiriladi va u joriy ma'lumotlar standartiga mos keladi. Yillik ma'lumotlar - hisobot davridan keyingi 6 oydan oshmasdan chiqariladi.

Sanoat mahsuloti indekslari to'g'risidagi ma'lumotlar Davlat statistika qo'mitasi tomonidan har o'ning 10 sanasida shakllantiriladi va ushbu ma'lumotlar tegishli standartlarga mos keladi.

3.2 Boshlang'ich ma'lumotlarni baholash

3.2.1 Boshlang'ich ma'lumotlarni baholash (tavsiya etiladigan kategoriya)

Korxonalaridan olingan ma'lumotlar nafaqat tuman statistika bo'limi va viloyat statistika organlari darajasida tahlil qilinadi, qolaversa Davlat statistika qo'mitasida ham nazorat va tekshiruvdan o'tadi. Ro'yhatga olish, tasniflash va xatolarni tekshirishda aniqlangan xato va kamchiliklar albatta respondentlar bilan yana bir bor aniqlashtirilib olinadi.

Dastlabki ma'lumotlar boshqa tegishli ma'lumot manbalari bilan taqqoslash yo'li orqali tahlil qilinadi.

3.3 Statistik usullar

3.3.1 Boshlang'ich ma'lumotlar bilan ishlashda statistik usullar (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador kategoriya sifatida talab etiladigan kategoriya)

Sanoat:

Ayrim toifalar (jismoniy shaxslar, ikkilamchi faoliyat va boshqalar) uchun baholash hisob-kitoblari so'rovnomalar ma'lumotlari bilan konseptual muvofiqlashtirilgan va umumiy yondashuvlarga ega.

Respondentlar tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlarning majburiyligi «Davlat statistikasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan belgilab qo'yilgan.

Ishlab chiqarish indeksini hisoblash mahsulotlarni (ishlarni, xizmatlarni) qiymat jihatidan ishlab chiqarish dinamikasiga oid ma'lumotlardan foydalanish asosida deflyatsiya usuli bilan amalga oshiriladi, keyinchalik asosiy iqtisodiy faoliyat turi

bo'yicha individual indekslarni qo'llagan holda agregatsiya qilinadi.

Sanoat mahsuloti indeksleri ma'lum bir vaqt mobaynida tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish hajmi o'zgarishini aks ettiruvchi ko'rsatkich hisoblanadi.

Agregatsiya uchun vazn sifatida, bazis yilning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning yalpi qo'shilgan qiymati ishlatiladi. Hisob-kitoblarda mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarining narx indeksleri qo'llaniladi.

Hisobot davri uchun ishlab chiqarish indeksini hisoblashda hisobot yilidan oldingi yil ishlatiladi (t-1); narx indeksleri va qo'shilgan qiymati uchun bazis davri sifatida ishlab chiqarish indeksini hisoblash uchun qabul qilingan bazis davrga nisbatan avvalgi yil ko'rsatkichlari (t-2) ishlatiladi.

3.3.2 Boshqa statistik jarayonlar (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

Sanoat:

«2008 yil uchun sanoat statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar» va «2010 yil uchun sanoat mahsuloti indeksi bo'yicha xalqaro tavsiyalar» bilan muvofiqlashtirilgan, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2015 yil 9 iyundagi 9-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Sanoat ishlab chiqarishning umumiy hajmini baholash bo'yicha metodik qo'llanma»ga asosan ishlab chiqarish faoliyati hajmi xisoblanadi.

Hisob-kitoblarda ma'muriy manbalar ma'lumotlaridan, ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanadigan yakka tartibdagi tadbirkorlarning tanlanma kuzatuvlaridan olingan ma'lumotlardan va uy xo'jaliklarida o'tkazilgan so'rovlardan olingan o'z iste'moli uchun ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi bo'yicha ma'lumotlardan foydalaniladi.

Hisob-kitoblarda soliq organlari ma'lumotlaridan, ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvlari ma'lumotlaridan, uy xo'jaliklari kuzatuvlari ma'lumotlaridan foydalaniladi.

3.4 Ma'lumotlarni taqqoslash

3.4.1 Oraliq natijalarni taqqoslash (tavsiya etiladigan kategoriya)

Baholangan va hisobot ma'lumotlari muntazam ravishda solishtirib boriladi. Dastlabki va aniqlashtirilgan ma'lumotlar orasida katta tafovut chiqmaydi.

3.4.2 Oraliq ma'lumotlarni baholash (tavsiya etiladigan kategoriya)

Asosiy oraliq ma'lumotlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nomuvofiqliklar tahlili o'tkazilib, ma'lumotlar mos kelmaslik holatini bartaraf etish uchun ko'rsatkichlar tuzatib boriladi.

3.4.3 Yakuniy statistik ma'lumotlardagi farqlarni va boshqa muammolarni baholash (tavsiya etiladigan kategoriya)

Avval nashr etilgan ma'lumotlarda nomuvofiqlik mavjud bo'lsa, keyingi ma'lumotlarda bu ma'lumotlarga o'zgartirish kiritiladi. Muvofiqlashtirish boshqa tashkilotlar va korxonalar bilan amalga oshirilishi mumkin.

3.5 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish tahlili

3.5.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish (tavsiya etiladigan kategoriya)

Sanoat: Dastlabki yillik yanvar-dekabr oylari uchun ko'rsatkichlari yillik hisobot ma'lumotlari bilan hisobot davridan 6 oydan keyin taqqoslanadi. 2016 yildan boshlab OKYeD (2-nashr) tasniflagichiga o'tilishi sababli 2010 yildan 2015 yilgacha yillik hajmlar va sanoat ishlab chiqarish indeklari qayta hisoblab chiqildi.

4. Amaliy yaroqlilik

4.1 Davriylik va o'z vaqtidaligi

4.1.1 Davriylik (talab etiladigan kategoriya)

Sanoat: Sanoat ishlab chiqarish indeklari har oyda, aniqlashtirilgan ma'lumotlar esa yillik hisobot asosida hisoblanadi

4.1.2 O'z vaqtidaligi (talab etiladigan kategoriya)

Sanoat: Ishlab chiqarish indeksi hisobot davridan keyingi oyning 10 kuni, yillik ko'rsatkichlar esa hisobot davridan keyin 6 oydan kechikmasdan e'lon qilinadi (MTUT ma'lumotlarini tarqatish standartlariga to'g'ri keladi). MTUT ma'lumotlarini nashr qilish taqvimida belgilangan vaqt jadvaliga asosan e'lon qilinadi.

4.2 Qiyosiylik

4.2.1 Ichki qiyosiylik (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

Statistik qatorlar tasdiqlanib, e'lon qilingandan so'ng qayta ko'rib chiqilmaydi.

4.2.2 Vaqt bo'yicha qiyosiylik (tavsiya etiladigan kategoriya)

Sanoat: 1992 yildan beri sanoat ishlab chiqarish bo'yicha dinamik qatorlar mavjud. Xalqaro valyuta jamg'armasi missiyasining tavsiyalariga muvofiq Davlat statistika qo'mitasi 2003 yildan beri xalqaro standartlar talablariga moslashtirilgan ishlab chiqarish indeksini hisoblab boradi.

1995 yildan buyon fizik hajm indeksi bo'yicha dinamik qatorlar mavjud, 2010 yildan buyon IFTUT ko'rsatkichlari tarkibi bo'yicha qayta hisoblab chiqilgan.

4.2.3 Sektorlar va sohalar o'rtasidagi qiyosiylik (tavsiya etiladigan kategoriya)

Statistik ma'lumotlar MHT (SNS) ma'lumotlari bilan muvofiqlashtirilgan.

4.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish

4.3.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish jadvali (talab etiladigan kategoriya)

Sanoat: Yillik statistik ko'rsatkichlar ma'lumotlari davlat statistika ishlari dasturida nazarda tutilgan muddatda yangilanadi. Oylik ma'lumotlar yillik hisobotlar tuzilgandan so'ng 2 oy ichida ko'rib chiqiladi va yillik ma'lumotlar iyun oyida aniqlashtiriladi.

4.3.2 Dastlabki va/yoki qayta ko'rib chiqilgan ma'lumotlarni aynan shu toifasi bo'yicha belgilash (talab etiladigan kategoriya)

Sanoat ishlab chiqarish indeksi bo'yicha ma'lumotlar Davlat statistika ishlari dasturida belgilangan muddatlarda aniqlashtirilgan yillik hisobotlar asosida qayta ko'rib chiqiladi.

4.3.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni tahlil qilish va o'rganish bo'yicha olingan natijalarni tarqatish (tavsiya etiladigan kategoriya)

Statistik to'plamlarda oldingi yil uchun ayrim ko'rsatkichlar qayta ko'rib chiqilishi ko'rsatiladi. Qayta ko'rib chiqilgan (yakuniy) ma'lumotlar Davlat statistika qo'mitasining nashrlari orqali chop etiladi.

5. Qulayligi

5.1 Ma'lumotlar

5.1.1 Statistik ma'lumotlarni taqdim etish shakli (talab etiladigan kategoriya)

Ishlab chiqarish indeksleri to'g'risidagi ma'lumotlar foydalanuvchilarga «O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati», «O'zbekiston Respublikasining statistik tasviri», «O'zbekiston Respublikasining milliy hisoblari» va boshqa nashrlar orqali onlayn va elektron shaklda taqdim etiladi.

5.1.2 Ma'lumotlarni tarqatish vositalari va shakllari (talab etiladigan kategoriya)

5.1.2.1 Bosma shaklida – Yangi nashrlar

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining nashrlari orqali chop etilgan shaklda foydalanuvchilarga tarqatiladi: «O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati» (choraklik), «O'zbekiston Respublikasining statistika tasviri» (choraklik), «O'zbekiston Respublikasining milliy hisoblari» (2 yilda bir marta) va boshqalar.

5.1.2.2 Bosma shaklida – Haftalik byulletenlar

Mavjud emas.

5.1.2.3 Bosma shaklida – Oylik byulletenlar

Mavjud emas.

5.1.2.4 Bosma shaklida – Choraklik byulletenlar

«O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati», «O‘zbekiston Respublikasining statistik tasviri».

5.1.2.5 Bosma shaklida – Boshqalar

Foydalanuvchilarning maxsus so‘rovlari bo‘yicha jadvallar.

5.1.2.6 Elektron shaklda – Onlayn byulletenlar yoki ma‘lumotlar

«Sanoat maxsulotlari» oylik byulleten.
Har chorakda veb saytda «O‘zbekiston Respublikasining statistik tasviri» nashr etiladi.
Oylik elektron press-reliz.

5.1.2.7 Elektron shaklda – Boshqalar

Davlat boshqaruv organlari va boshqa foydalanuvchilarga so‘rovlar bo‘yicha har oyda, chorakda va har yili ma‘lumotlar elektron shaklda jadvallarda taqdim etiladi.

5.1.5 So‘rov bo‘yicha ma‘lumotlarni tarqatish (tavsiya etiladigan kategoriya)

Aniq tafsilotlarga so‘rov bo‘yicha ega bo‘lish mumkin. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat statistikasi to‘g‘risida»gi qonuniga, «O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi to‘g‘risida»gi nizomga, Statistik axborotlarni tayyorlash va tarqatish ishlarini tashkil etish qoidalari va boshqa me‘yoriy hujjatlarga muvofiq, statistik ma‘lumotlar foydalanuvchilarga so‘rovlari bo‘yicha belgilangan tartibda taqdim etib boriladi. Statistik axborotlarni tarqatish yuridik va jismoniy shaxslarni yozma so‘rovlari bo‘yicha bosma yoki elektron jadval ko‘rinishda, statistik to‘plamlar, byulletenlar, tezkor axborot shaklida, shuningdek tomonlar o‘rtasidagi axborot almashinuvi to‘g‘risidagi bitimlarga asosan amalga oshiriladi.

5.2 Metama‘lumotlar

5.2.1 Konsepsiyalar, statistik qamrov, klassifikatsiyalar, hisobga olish asosi, ma‘lumotlar manbasi va statistik usullar to‘g‘risidagi hujjatlarni tarqatish (talab etiladigan kategoriya)

Davlat statistika qo‘mitasining veb saytida (<https://lib.stat.uz/uz/uslub-mater-uz/sanoat>) statistika ko‘rsatkichlarini shakllantirish va hisoblash uchun uslubiy qo‘llanmalar joylashtirilib kelinadi.

9. Rejalar

9.1 Oxirgi

9.1.1 Takomillashtirish rejalari – Oxirgi takomillashtirishlar

Sanoat: Zamonaviy xalqaro standartlarni hisobga olgan holda, yakka tartibda va tadbirkorlik faoliyati xajmini hisoblash uslubiyatini ishlab chiqish.

Davlat statistika kuzatuvlarining vositalarini (shakllari va anketalari) takomillashtirish.

9.2 Umumiy

9.2.1 Takomillashtirish rejalari – Qisqa muddatlilari

Diskret oylar bo'yicha ishlab chiqarish (sanoat) ko'rsatkichlarini hisoblash.

9.2.2 Takomillashtirish rejalari – O'rta muddatlilari

Sanoat ishlab chiqarish indekslarini diskret choraklar buyicha analitik ma'lumotlarni tayyorlash va Davlat statistika qo'mitasining saytida (www.stat.uz) joylashtirish.

9.3 Moliyaviy

9.3.1 Takomillashtirish rejalari – Texnik yordam/moliyalashtirishga ehtiyojlar – Qisqa muddatli

Moliyalashtirish Davlat statistika ishlari dasturi doirasida ko'zda tutilgan.

9.3.2 Takomillashtirish rejalari - Texnik yordam/moliyalashtirishga ehtiyojlar– O'rta muddatli

Moliyalashtirish Davlat statistika ishlari dasturi doirasida ko'zda tutilgan.

Aloqa bog'lash uchun shaxs (shaxslar):

	Aloqa bog'lash uchun shaxs <u>1</u>		
<i>F.I.O.:</i>	Jo'rayev Sardor	Botirovich	
<i>Lavozim:</i>	Boshqarma boshlig'i		
<i>Bo'linma:</i>	Sanoat statistika boshqarmasi		
<i>Bo'lim:</i>			
<i>Departament:</i>	Sanoat statistika boshqarmasi		
<i>Idora:</i>	Davlat statistika qo'mitasi		
<i>Manzil (1 satr):</i>			
<i>Manzil (2 satr):</i>	Mustaqillik shox ko'chasi, 63-uy		
<i>Shahar/region:</i>	Toshkent		
<i>Mamlakat:</i>	O'zbekiston		
<i>Pochta indeksi:</i>	100192		
<i>Telefon: mamlkat kodi/shahar kodi/raqam</i>	998	71	2308046
<i>Faks: mamlkat kodi/shahar kodi/raqam</i>			
<i>Elektron manzil:</i>			
	Aloqa bog'lash uchun shaxs <u>2</u>		
<i>F.I.O.:</i>	Avakova Anjela	Georgiyevna	
<i>Lavozim:</i>	Boshqarma boshlig'i o'rinbosari		
<i>Bo'linma:</i>			
<i>Bo'lim:</i>	Sanoat bo'yicha yig'ma tahliliy axborotlarni va sanoatni rivojlantirish dasturlarining indikatorlarini shakllantirish bo'limi		
<i>Departament:</i>			
<i>Idora:</i>	Davlat statistika qo'mitasi		
<i>Manzil (1 satr):</i>	Mustaqillik shox ko'chasi, 63-uy		
<i>Manzil (2 satr):</i>			
<i>Shahar/region:</i>	Toshkent		
<i>Mamlakat:</i>	O'zbekiston		
<i>Pochta indeksi:</i>	100192		
<i>Telefon: mamlkat kodi/shahar kodi/raqam</i>	998	71	2308048
<i>Faks: mamlkat kodi/shahar kodi/raqam</i>	998	71	2308153
<i>Elektron manzil:</i>	A.Avakova@stat.uz		